

**“ALISHER NAVOIY – SO‘Z MULKINING DAHOSI” MAVZUSIDA MA’NAVIY-  
MA’RIFIY TADBIR O’TKAZISH TAJRIBASIDAN**

**Achilova Zarina Saidovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi, ona tili va adabiyot fani  
o`qituvchisi

[achilovazarina55@gmail.com](mailto:achilovazarina55@gmail.com)

Telefon raqami: +998905051709

**Achilova Nasiba Saidovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi, ona tili va adabiyot fani  
o`qituvchisi

[achilovanasiba63@gmail.com](mailto:achilovanasiba63@gmail.com)

Telefon raqami: +998905026665

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7479511>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan “Nazm va navo” turkumidagi adabiy-badiiy kecha tarzida akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida o’tkazish tartibi borasida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Nazm va navo”, Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, G’azal Munojot”

**ИЗ ОПЫТА ПРОВЕДЕНИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО  
МЕРОПРИЯТИЯ НА ТЕМУ «АЛИШЕР НАВОИ – ГЕНИЙ СЛОВА»**

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о порядке проведения литературно-художественного вечера из цикла «Назм и Наво» в академических лицеях и профессиональных колледжах по случаю дня рождения Алишера Навои.

**Ключевые слова:** «Назм ва наво», Хазайн ул-маани», «Хамса», Газаль Муножат».

**FROM THE EXPERIENCE OF CONDUCTING A SPIRITUAL AND  
EDUCATIONAL EVENT ON THE SUBJECT "ALISHER NAVOY - THE GENIUS OF  
WORDS"**

**Abstract.** This article talks about the procedure for holding a literary-artistic night of the “Nazm and Navo” series in academic lyceums and vocational colleges on the occasion of Alisher Navoi’s birthday.

**Key words:** "Nazm va navo", Khazayin ul-maani", "Khamsa", Ghazal Munojat".

Ushbu tadbirni Alisher Navoiy tavalludi munosabati bilan “Nazm va navo” turkumidagi adabiy-badiiy kecha tarzida akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida quyidagi tartibda o’tkazish maqsadga muvofiqdir.

**1-boshlovchi:** Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

**2-boshlovchi:** Assalomu alaykum, adabiyot va she’riyat shaydolari, nazm gulshanining gulchinlari! Ona-diyorimizda, ne-ne alloma-yu buyuk dahoaming beshigini tebratgan sarzaminiimizda katta shodiyona!

**1-boshlovchi:** Bugun butun turkiy olam tafakkur gulshanining so‘z sehrgari, buyuk mutafakkir Amir Nizomiddin Alisher Navoiy mavludi shariflarining sanayi muboraklarini katta tantanalar bilan nishonlamoqdalar.

**2-boshlovchi:** Ul zot nainki bashariyat zamini madaniyat va ma’rifatining, balki butun yer kurarsi ilohiy madaniyat va ma’rifatining ham bamisli monand payg’omchisi, ya’ni darakchisi erdilar.

**1-boshlovchi:** Bugun biz bilamizki, hazrat Alisher Navoiy anchayin shoir emas, balki zabardast maoniy erdilarkim, bu alamangiz satrlar ul zot ilkidan muhr etmish: **Ta’b ganjidin maoniy xurdasin yuz qatla hayf**,

**Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.**

**2-boshlovchi:** Azizlar, o’zbek she’riyatining porloq quyoshi, o’zbek adabiy tilini jahonshumul yuksaklikka ko’targan, “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa” kabi nodir yodgorliklar

kashfiyotchisi sharafiga bag`ishlangan “Nazm va navo” kechasiga yig`ilgan ekanmiz, umidim ulki, soyimdin ruhlari toza bo`lgan azizlar qoyim ruhini biror oyat birla yod va biror fotiha birla shod qilg`aylar

### O`QUVCHILARNING CHIQISHI

Assalom, Navoiy, assalom, ustoz,  
Qalbimizda sevinch, qo `Ida she`riy soz.  
Muborakbod bo `Isin, qutlug` to`yingiz,  
Davramiz bezatmish g `azal - kuyingiz.

To `yda takrorlanar uning qo `shig'i,  
Yana yuksaladi otashin so `zi.  
Shodlik yerga sig`mas go` yo bu to `yda  
Qatnashayotganday Navoiy o `zi.

Vakil yubormishdir Nizomiy, Jomiy,  
Bunda Xusrav yurti shirin kalomi.  
Sizga ta`zim qilar qadim Registon-  
Shoirlar maskani, sayqali jahon.

Sizga ta`zim qilar minnatdor ellar,  
Sizga olqish yo`llar g `azalxon dillar.  
Shogirdlar ta`zimi bu - kalomimiz,  
Shogirdlar ta`zimi bu - salomimiz.

**2-boshlovchi:** Orol sohillaridan Surxon vohasigacha, Farg`ona bog`laridan Qarshi cho`llarigacha, Xorazm paxtazorlaridan aziz poytaxtimiz Toshkentgacha, qadimiyl Buxorodan yer yuzining sayqali bo`lmish Samarqandgacha bo`lgan o `zbeklar elida Navoiy so `zi, Navoiy nomi, so `z mulkining dahosi bo`lmish bobokalonimiz Mir Alisher Navoiyning ash'orlari yangramoqda.

### O`QUVCHILARNING CHIQISHI

#### Navoiyning g `azal, ruboiy va qit`alaridan o'qishadi

Zamindek qadimiyl, ishqdek azaliy,  
Ham shamshir, ham qalqon shoir g `azali.  
G `azal - yulduz to`la sehrli samo,  
Sochiga oq tushgan qalbi yosh dunyo  
G `azal - sharob to`la oltin piyola.  
G `azal - qalb qonidan ochilgan lola.  
G `azal - bulbullarning so`ngsiz navosi,  
Dardli yuraklarning g `azal davosl.

Bu navo dillarni asir ayladi,  
Bu navo o `zbekni jasur ayiadi.  
Til burro so`zlashni o `rgandi undan,  
Bulbul ham kuylashni o `rgandi undan.

#### “Munojot” qo `shig'i. Raqsida raqqosa qizlar

**1-boshlovchi:** Munojotman, Navoiyning nidosi,  
Sof dillarning manam bitta fidosi.  
Ko`ngil bo`stonining manam ziyosi,  
Ham firoqman, ham visolman, ham ishqman.  
Ko`ngildan oh urib chiqqan qo `shiqman,  
Munojotman, munojotman, munojot.

**2-boshlovchi:** Bugun g `azal to`yi, she`riyat to`yi,  
Bugun o `zbek to`yi, katta baxt to`yi.  
Bu sizning kuyingiz ustoz, Navoiy,  
G `azal olamida, mumtoz Navoiv.

**1-boshlovchi:** Alisherda she'riyatga havas ilk boialik chog`laridan boshlangan edi. U ilk g`azalini Mavlono Lutfiyga o`qib bergenida, "Malik ul – kalom" hayratda qolgan edilar.

**Sahna ko`rinishi: Mavlono Lutfiy va yosh Alisher suhbati ustozlar va o`quvchilar ijrosida namoyish etiladi.**

### O`QUVCHILARNING CHIQISHI

Durlar xazinasi - dilbar "Chor devon",  
To`rt ajib gulshan-u, to`rt ajib ummon.  
Bag`ri yara emas Laylining bugun,  
Qalbini Qaysga bergandir butun.

Dono, aqli raso, bahodir Farhod  
Shirin mehri bilan baxtli umrbod.  
Ishqini qo`schiqqa solib Dilorom  
Kuylasa yuraklar topadi orom.

O`zligin o`z tilida nido qilgan Navoiy,  
Nazmiy gulshan ichida navo qilgan Navoiy.  
Turkiy lilda bebafo, o`lmas asarlar yozib,  
Nizomiy panjasiga panja urgan, Navoiy.

Muxammas-u ruboiy, nazmda ijod etib,  
Go`zal qalb bisotidan qog`ozga durlar to`kib,  
"Xazoyin ul-maoni" nodir devonin bitib,  
Ajab saodat qilgan bizning ulug`, Navoiy.

**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy o`z zamonasida muhabbat ahlining dil izhorini o`z ona tilida to`lib toshib kuylagan, o`z ona tilining javohirlari bilan jahonda tengsiz she'riy durdonalar yaratgan buyuk so`z dahosidir

**Sahna ko`rinishi: O`quvchi qizlar "Gul" radifli g`azalni ijro etishadi.**

Orazingni bog` aro chun ko`rdi hayron bo`ldi gul,  
Bargsiz qoldi nedinkim, bas parishon bo`ldi gul.  
Bodadin gul-gul ko`rib gul yuzni oning hajridin.  
Chok-chok o`lgon ko`nguldek tah-batah qon bo`ldi gul.  
Guluzorim kishvari husn ichra bo`ldi podshoh  
Rost andoqkim, chaman mulkida sulton bo`ldi gul.  
Sayri bog` aylarda davron chashmi zaxmi daf`iga,  
Har tarafdin chobukung davrida qalqon bo`ldi gul.  
La`li komimdur qoshimga keisa ul gul xirmani,  
May tilar ko`nglum, chu bazmida farovon bo`ldi gul.  
Kecha-kunduz qilma gulboningni bas, ey, andalib,  
Kim sanga besh kun bu gulshan ichra mehmon bo`ldi gul.  
Gul chog`i yori safar aylab Navoiy qoshiga,  
Har biri bir toza qonlig` dog`i hijron bo`ldi gul.

**2-boshlovchi:** Navoiy shoh asari "Xamsa"ni yozish bilan o`zidan oldin o`tgan salaflari - Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy an'analariga sodiq qolganligini namoyish etdi.

**1-boshlovchi:** Do`sstar, jonli bashar Jomiy, Navoiyni ko`ring,  
Sohibi fazl-u hunar Jomiy, Navoiyni ko`ring,  
Biri tojik, biri o`zbek va lekin birdur talab  
Dil bilan til bir magar, Jomiy, Navoiyni ko`ring.

**Sahna ko`rinishi: Alisher Navoiy va Jomiy uchrashuvi**

**2-boshlovchi:** Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasig`a panja urmoq.

Kerak sher ollida ham sher jangi,  
Agar sher o`lmasa bore palangi.

**1-boshlovchi:** “Hayrat ul-abror” dostoni falsafiy, axloqiy-ta’limiy mavzudagi asar bo`lib, undagi maqolat va hikoyatlar ma’naviy komil insonni tarbiyalash xususiyatiga egadir. Dostondan olingen “Marhamatli Ayyub va o`g`ri” hikoyatini e’tiboringizga havola etamiz.

**Sahna ko`rinishi:** “Marhamatli Ayyub va o`g`ri” hikoyati ustoz va o`quvchi ijrosida namoyish etiladi.

**2-boshlovchi:** Bu gulshan ichraki yo`qtur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot.

**1-boshlovchi:** Alisher Navoiy o`z asarlarida odil podshoh haqidagi orzu-o` ylarini tasvirladi. Uining har bir shoh timsolidagi qahramonlari adolatni, insofni va diyonatni o`zlariga shior qilib olgan edilar.

**2-boshlovchi:** “Hayrat ul-abror” dostonidan olingen “Shoh G`oziy hikoyati” ana shundav teran mazmunli asardir.

**Sahna ko`rinishi:** “Shoh G`oziy” hikoyati ustoz va o`quvchi ijrosida namoyish etiladi.

**1-boshlovchi:** Navoiy nomi, Navoiy so`zi umrboqiyidir. U so`nggi nasl avlodlarining asarlarida umrbod yashagusidir.

**Sahna ko`rinishi:** Izzat Sulton va Uyg'unning “Alisher Navoiy” dramasidan Gul va Navoiy monologi o'qituvchi va o`quvchilar ishtirokida namoyish etiladi.

“Mehribone topmadim” qo`shig`i o`quvchilar ijrosida

**2-boshlovchi:** Chun topdim ul kalom ichra kamol,  
Turk alfozi birla surdim maqol.  
Turk nazmida chu tortib men alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

**1-boshlovchi:** Mana shoir yakqalam aylagan yurt bugun uning o`zini kuylamoqda. Bugungi kunda Navoiy qoldirgan tafakkur gulshani yanada navqiron bo`lib kamol topmoqda. Yillar, asrlar o'taveradi, ammo xalqimizning Alisher Navoiydek sevimli farzandi bizga hech qachon yot bo`lmaydi. Uning o`lmas asarlarining umri boqiyidir.

**2-boshlovchi:** “Umidim uldir va xayolimg`a andoq kelurkim, so`zim martabasi avjdin quyi inmagay va yozg'on asarlarimning kavkabasi a`lo darajadin o`zga yerni begamnagay”. Bu so`zlarni aytgan Navoiyning orzulari ro'yobga chiqdi. Uni biz va bizning avlodlar davom ettirgusidir.

**1-boshlovchi:** Ul zoti muborakning aziz ruhlarini yod va shod etar ekanmiz, ul hazratning ruhi shariflari ham bizni, alalxusus, ona-zaminimizni qo'llagay.

**2-boshlovchi:** Azizlar, Alisher Navoiyning tavalludi munosabati bilan o'tkazilayotgan “Nazm va navo” kechasi o`z nihoyasiga yetdi.

**Hamma:**                   **Elimizning vijdonisan, Navoiy,**  
                                 **So`z mulkining dahosisan, Navoiy!**